

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG’LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
PREVENTIV TIBBIYOT ASOSLARI KAFEDRASI**



**“GIGIYENA.TIBBIY EKOLOGIYA. ”
FANINING ISHCHI O`QUV DASTURI
2-kurs**

Bilim sohasi:	900 000 – Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot
Ta’lim sohasi:	910 000 - Sog’liqni saqlash
Ta’lim yo’nalishlari:	60910100 -Stomatologiya

Andijon - 2025 yil

Fan/modul kodi GTE13-04	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek, rus		Xaftadagi dars soatlari 2	
1	Fanning nomi GTE13-04	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Gigiyena.Tibbiy ekologiya.	60	60	120

2 I. Fanning mazmuni.

Fanni o'qitishdan maqsadi – talabalarda gigienik fikrlash qobiliyatini shakllantirish, kasalliklarni yuzaga kelishida atrof muhitda bor bo'lgan ijtimoiy-gigienik omillar va mahalliy tabiiy iqlim sharoitlarini inobatga olish hamda insonni o'rab turgan tashqi muhitning eng muvofiq sharoitlaridan davolash va sog'lomlashtirish maqsadida foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalar (kompetensiyalar)ni shakllantirish.

Fanning vazifalari

- talabalarga inson organizmi bilan atrof muhit o'rtasidagi bog'liqligining asoslarini;
- gigienik reglamentlashtirish prinsiplarini;
- turli shakldagi patologiyalarning kelib chiqishida tashqi muhitdagi omillarning tutgan o'rni, atrof muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha tadbirlar va kasalliklarning birlamchi profilaktikasini;
- sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilishni;
- talabalarga atrof muhit omillarining holatini tekshirish, uni tahlil qilish va olingan natijalarni gigiyena nuqtai-nazardan baholash (ovqatlanish gigiyenasi, davolash-profilaktika muassasalari gigiyenasi, mehnat gigiyenasi, bolalar va o'smirlar gigiyenasi, radiatsion va harbiy gigiyena sohasida) ni o'rgatish.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

T/r

3-semestr ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari

1

Stomatolog vrachlarni tayyorlash tizimida gigienaning tutgan o'rni va ahamiyati. Zamonaviy inson ekologiyasi. Atrof muhit gigiyenasi. Gigiena moduli vazifalari.

Havo muhitiga gigienik ta'rif. Quyosh radiatsiyasining gigienik ahamiyati. Havo muhitining fizikaviy xossalari (harorat, namlik, havo harakatining tezligi va yo'nalishi, uning atmosfera bosimi va elektr holati)ni biologik va umumsanitar ahamiyati, organizmga nomuvofik ta'sir etish mumkinligi, oldini olish tadbirlari. Havo muhitining kimyoviy tarkibi, tabiiy kimyoviy tarkibidagi ayrim qismlarining fiziologik va sanitar ahamiyati. Havo

muhitining biologik xossalari va aerogen infeksiyalar haqida tushuncha. Quyosh radiatsiyasi haqida tushuncha va uning tarkibidagi infraqizil, ultrabinafsha, ko‘rinuvchi nurlarining gigienik ahamiyati. Kasalxonalar ichi infeksiyalarini kelib chiqishida havo

Gigiena moduli vazifalari. Tibbiy ta‘lim tizimida gigienaning o‘rni. “Aholi salomatligi” tushunchasi, aholi salomatligi ko‘rsatkichlarining yashash va turmush sharoitlariga bog‘liqligi. Atrof muhit tashqi omillari haqida tushuncha. Gigienada qo‘llanadigan tekshirish usullari. Gigienik me‘yorlashtirish va reglamentlashtirishning asoslari. Davolash sohasidagi vrach faoliyatida gigienaning ahamiyati. Inson ekologiyasi haqida tushuncha. Insonlarning hozirgi zamon yashash muhitini shakllanishi uchun ilmiy-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning ahamiyati. Atrof muhitning ifloslanishi ilmiy-texnika taraqqiyotining asosiy negativ oqibati ekanligi. Ifloslanish turlari va ularning shahar hamda qishloq aholi yashash joylaridagi asosiy manbalari. Zararli omillarning biosferada bo‘lishi va oqibatining umumiy qonuniyatlari, biologik zanjirlar haqida tushuncha. Ekologik vaziyatlar, ekologik ofatli mintaqalarga umumiy ta‘rif va O‘zR hududidagi ekologik tanglik, Atrof muhitni muhofaza qilishga doir tadbirlar. Shahar muhitiga gigienik ta‘rif, uning aholi salomatligi uchun ahamiyati, uni yaxshilashga doir tadbirlar, zamonaviy turar-joy binolari va mavzellariga bo‘lgan gigienik talablar.

Davolash-profilaktika muassasalari gigienasi. DPM-larning ixtisoslashtirilgan bo‘limlariga bo‘lgan gigienik talablar. INM. Sanitar-dozimetrik nazorat. Ionlantiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanilganda xodimlar va patsientlarni nurlanishdan himoya qilish.

2 Kasalxonalar qurilishining gigienik asoslari. O‘zRda DPM moddiy-texnik bazasining holati va uni yaxshilash bo‘yicha bugungi kundagi vazifalar. Kasalxonalar qurilishining zamonaviy muammolari.

Davolovchi-himoyalovchi tartib haqida tushuncha, uning kasalxonalarni obodonlashtirilganligi bilan bog‘liqligi. O‘zRda DPMni rejalashtirish va loyihalashtirish reglamentlari va gigienik asoslari. Kasalxonalarni rejalashtirishga bo‘lgan umumiy gigienik talablar. Kasalxonalarni kommunal nuqtai-nazardan jihazlanishi (suv ta‘minoti, kanalizatsiya, yoritilishi, shamollatilishi,

chiqindilardan tozalash). Bemorlarni ovqatlantirishni tashkil qilish. Kasalxona ichi infeksiyasi haqida tushuncha va uni oldini olish choralari. Jarrohlik, yukumli kasalliklar va tugʻruqxona boʻlimlariga boʻlgan asosiy gigienik talablar.. DPM-da ionlantiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanish: ionlantiruvchi nurlanishlarga qisqacha fizikaviy taʼrif, ularning biologik taʼsiri. DPMda foydalaniladigan ionlantiruvchi nurlanish manbalarining turlari. Tashqi va ichki nurlanish tushunchasi, ionlantiruvchi nurlanish manbalaridan foydalanilganda xodimlar va patsientlarni nurlanishdan himoya qilishga doir tadbirlar. Ionlantiruvchi nurlanish manbalarining doza va aktivligining oʻlchov birliklari. Sanitar-dozimetrik nazorat haqida tushuncha.

- 3 **Suv salomatlik omili.** Suvning fiziologik, gigienik va epidemiologik ahamiyati. OʻzR aholisini suv bilan taʼminlashdagi eng muhim muammolar, mahalliy va markazlashgan suv taʼminoti haqida tushuncha. OʻzRda oʻrnatilgan suv isteʼmoli meʼyorlari. Respublika hududidagi suv manbalariga gigienik taʼriflar. Suv taʼminoti manbalariga boʻlgan umumiy gigienik talablar. Suv manbalarining sanitar himoya mintaqalarini tashkil qilish. San QvaM-950-2011 ga muvofiq ichimlik suvining sifatiga yaxshilash usullariga umumiy taʼrif. Ichimlik suvining sifatini yaxshilashdagi asosiy usullar: suvni tiniqlashtirish va zararsizlantirish (usullari, vositalari, ishlov berish tartibi va uning gigienik nazorati).

4-semestr maʼruza mashgʻulotlari mavzulari

- 4 **Ovqatlanish gigienasi.** Ovqatlanishning salomatlik omili ekanligi. Ovqatlanishning ijtimoiy-gigienik muammo ekanligi. Aholi salomatligi uchun ovqatlanishning ahamiyati. Oqilona ovqatlanish tushunchasi va unga boʻlgan gigienik talablar, fiziologik ovqatlanish meʼyorlari. Asosiy oziqli moddalarning manbalari va gigienik isteʼmol meʼyorlari. Alimentar kasalliklar haqida tushuncha, ularning tasnifi. Ovqatdan zaharlanishlar, tasnifi. Ovqatdan zaharlanishning muhim shakllari kelib chiqishini oldini olish. YUz-jagʻ kasalliklari bemorlarini parhezli ovqatlantirishning gigienik asoslari.

5 **Bolalar va o'smirlar gigienasi.** Bolalar va o'smirlar gigienasi. O'zbekiston aholisi bolalar kontingentining salomatlik ko'rsatkichlari. Aholi turmush sharoitining bolalarning salomatlik holatini belgilovchi muhim omil ekanligi. Bolalarning jismoniy rivojlanishi ularni tarbiyalash va o'qitish sharoitlarini muvofiqlashtirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqishning asosi ekanligi. Akseleratsiya, uning gigienik ahamiyati, maktabga etilganlik tushunchasi. Bolalar va o'smirlarga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishning gigienik asoslari. Bolalar muassasalarini qurish va jihozlashga bo'lgan gigienik talablar. **Aholining profilaktik tekshiruvlari va epidemiologik tekshiruvlarini o'tkazish, bolalarni gigienik tarbiyalash va o'qitish, oqilona og'iz gigienasi, tish kasalliklarining paydo bo'lishi uchun xavf omillarini aniqlash va bartaraf etish, stomatologik ta'lim shakllari va usullari.**

6 **Stomatologiyada mehnat gigienasining umumiy asoslari. Ishlab chiqarish muhitidagi fizikaviy, biologic va kimyoviy omillarga gigienik ta'rif. Kasb kasalligi.** Mehnat sharoitlarini gigienik o'zgarishi uchun ilmiy-texnika taraqqiyotining ahamiyati. Mehnat gigienasi tushunchasi, mehnat gigienasi sohasidagi zamonaviy muammolar. Ishlab chiqarishga oid zararlar haqida tushuncha, ularning tasniflari. Kasbga doir kasalliklar, O'zR uchun bu muammoning dolzarbligi. Sanoat korxonalarida ishchi va xizmatchilariga tibbiy xizmat ko'rsatishni tashkil etishning asoslari. Ruhiy fiziologik omillarga gigienik ta'rif, ularning ishchilar organizmiga zararli ta'sirini oldini olish tadbirlari. Ishlab chiqarish muhitidagi fizikaviy omillarga umumiy ta'rif.: nomuvofiq mikroiklim, shovqin, tebranish (fizikaviy ta'rif, ishchilar organizmiga zararli ta'siri, zararli ta'sirini oldini olish tadbirlari). Sanoat changlari, changlarning tasniflari, changga doir patologiyalarhaqida tushuncha va ularni oldini olish tadbirlari. Ishlab chiqarish muhitidagi biologik omillarning gigienik ahamiyati, kasbga oid infeksiyalar haqida tushuncha, ularni oldini olish tadbirlari. Ishlab chiqarish muhitidagi kimyoviy omillar haqida tushuncha, ularning gigienik ahamiyati: organizmga kirish yo'llari, mumkin bo'lgan ta'sir etish tabiati, ularning zaharliligi bo'yicha tasnifi. O'tkir va surunkali kasbiy zaharlanishlar haqida tushuncha, ularni oldini olish tadbirlari. Ishlab chiqarishga doir zararli omillarning spetsifik ta'siri: allergenli, kanserogenli, mutagenli, teratogenli, embriotoksik; oldini olish tadbirlari. Zararli kasblarda ishlovchi ishchilarga davolovchi-profilaktik ovqatlar berish va ularga gigienik ta'rif.

Jami:

III. Amaliy mashg'ulotlari ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarga quyidagi mavzular tavsiya etiladi

T/r	3-semestr mashg'ulot nomi
1	Kasalxona xonalari mikroiqlimining gigiyenik ahamiyati (harorat, namlik, havo harakat tezligi, bosim).
2	Kasalxona xonalari havosining antropogen ifloslanishi haqida tushuncha. Xavo almashinishini gigiyenik baxolash.
3	Kasalxona xonalari yoritilganligining ahamiyati. Tabiiy va sun'iy yoritilganlikni gigiyenik baxolash.
4	DPMlarda INMlardan foydalanilganda dozimetrik va radiometrik nazorat o'tkazishning asoslari
5	Kasalxona ichi infeksiyasi va uni oldini olish (SanQVM 0342-17).
6	Loyiha materiallari bo'yicha davolash-profilaktika muassasalarini gigiyenik baholash (Stomatolog kabinetini loyixalash va jixozlash. Dalolatnoma tuzish).
7	DPMda ratsional suv ta'minotining ahamiyati. Ichimlik suvining sifatini yaxshilashning zamonaviy usullari haqida tushuncha.
8	Ratsional ovqatlanish. Oziq-ovqatning ozuqaviy yukining inson salomatligidagi roli
9	Bemorlarning ovqatlanishini tashkil qilish va uning gigiyenik nazorati
10	Yuz-jag' jarohati patologiyasi mavjud bo'lgan hollarda ovqatlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
11	Organizmning vitaminlar bilan ta'minlanganligini o'rganish va baholash.
12	Ovqat mahsulotlarining sifatini gigiyenik baholash.
	Ovqatdan zaharlanishlar va ularni oldini olish choralari.

T/r 4-semestr Mashg'ulot nomi

1	Bolalar va o'smirlarning jismoniy rivojlanishini tekshirish usullari
2	Turli yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab o'quvchilariga gigiyenik ta'lim va gigiena mashg'ulotlari. Homilador ayollar va yosh bolalarda tish kasalliklarining oldini olish.(dalolatnoma tuzish)
3	Maktablarni loyihalashga bo'lgan gigiyenik talablar
4	Maktablarni jixozlashga va o'quv qurollariga bo'lgan gigiyenik talablar. Maktabda o'qitish va tarbiyalash sharoitlarini optimallashtirish asoslari.
5	Umumta'lim maktablarida o'quv jarayonini tahlil qilish Dalolatnoma tuzish
6	Jismoniy tarbiya darsiga bolgan gigiyenik talablar.
7	Sanoat korxonalarida ishchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish tartibi
8	Korxonalarda shovqinni tekshirish va baholash
9	Korxonalarda tebranishli vaziyatlarni tekshirish va baholash
10	CHangga oid patologiyalar xaqida tushuncha
11	Kimyoviy omillarni umumzaxarli va maxsus ta'siri haqida tushuncha
12	Qishloq ho'jaligida mehnat gigiyenasi. Pestitsidlar xaqida tushuncha

III. Mustaqil ish mavzular.

T/r	3-semestr mustaqil ish mavzular
1	Gigiyenaning rivojlanish tarixi. O‘zRda gigiyena modulining shakllanishi va rivojlanishi
2	Xonalarning mikroiklim ko‘rsatkichlarini tekshirish va baholash
3	Xonalarning havosini tozaligini tekshirish va baholash
4	Xonalarning tabiiy va sun‘iy yoritilganlik ko‘rsatkichlarini tekshirish va baholash
5	Tashqi nurlanishdan himoyalanihni hisoblash
6	Kasalxona ichi infeksiyalarini kelib chiqishi uchun havoning bakterial ifloslanganligini ahamiyati
7	Stomatolog kabinetini loyixalash va jixozlash. Loyiha materiallari bo‘yicha DPM larini gigiyenik baholash.
8	Ichimlik suvining tiniqlashtirilishi va zararsizlantirilish sifatini nazorati.
9	Talabalarning ovqatlanishini adekvatligini o‘rganish va baholash.
10	Organizmning S-vitaminiga bo‘lgan ehtiyojini baholash.
11	Tez buziluvchi ovqat mahsulotlarining to‘la sifatligini baholash.
12	Bemorlarning ovqatlanishini tashkil qilish va ovqatlantirish sifatini gigienik nazorati (referat).

Jami

3

T/r	4-semestr mustaqil ish mavzular
1	O‘quvchilarni gigienik tarbiyalash
2	Ruhiy-fiziologik omillarga gigienik ta’rif, organizmga ularning zararli ta’sirini oldini olish tadbirlari
3	Bolalar muassasalarini loyihalashtirish qurish va jihozlashga bo‘lgan gigienik talablar
4	Kiyim boshlar va oyoq kiyimlari gigiyenasi
5	Tuproq hosil qiluvchi omillar
6	Ishchi-xodimlarni tibbiy ko`rikdan o`tkazish tartibi

- 7 Korxonalarda shovqinni tekshirish va baholash
- 8 Korxonalarda tebranishli vaziyatlarni tekshirish va baholash
- 9 CHangga oid patologiyalar xaqida tushuncha
- 10 Kimyoviy omillarni umumzaxarli va maxsus ta'siri haqida tushuncha
- 11 Qishloq ho'jaligida mehnat gigiyenasi
- 12 Pestitsidlar xaqida tushuncha

Ta`lim natijalar/kasbiy kompetensiyalari

Talaba bilishi kerak.

- vrachning turli xil kasalliklarining oldini olishdagi vazifalarini; - gigiyenaning maqsadi, vazifalarini, tashqi muhit omillarining, ijtimoiy-maishiy sharoitlarning aholi salomatligini shakllantirishdagi ahamiyatini;
- zamonaviy odam ekologiyasining tibbiy jihatlarini;
- bolalar va o'smirlar organizmining anatomo-fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlarini;
- maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar toliqish sabablarini;
- bolalar va o'smirlar muassasalari qurilishiga qo'yiladigan gigienik talablarni;
- bolalar va davolash muassasalaridagi mikroiklim, yoritish va ovqatlanish tartibi;
- maktab va bog'chalar jihozlariga qo'yiladigan gigienik talablari; - maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsiy gigiyenasi;
- maktab vrachi ishining asosiy bo'limlarini;
- qurolli kuchlardagi sanitariya nazorati va gigienik ta'minotlar xaqida;
- O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi Sanitariya nazorati kuchlari va vositalari;
- qo'shinlarning sanitar-epidemiologik xotirjamligini ta'minlashning asosiy prinsiplari;
- Qurolli Kuchlardagi sanitariya nazoratini o'tkazishda foydalaniladigan usullar haqida harbiy qo'shinlarni joylashtirish, yuvintirish-kiyintirish bo'yicha gigienik me'yorlash va reglamentlash;

Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:

- aholini gigienik tarbiyalash va sog'lom turmush tarzini shakllantirish ishlarini o'tkazish;
- mehnat qobiliyatini yo'qotganda vrachlik mehnat ekspertizasini tashkillashtirish;
- tinchlik va harbiy vaziyatlarda gigienik tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish.

4	<p>VI.Ta`lim texnologiyalari va metodlari.</p> <p>ma`ruzalar;</p> <p>interfaol keys-stadilar;</p>
---	--

	<p>tezkor savol-javoblar; guruxlarda ishlash; jamoaga bo`lib ishlash; taqdimotlar tayyorlash; dalolatnomalar yozish;</p>
5	<p>Modul bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish turlari va baholash mezonlari</p> <p>Gigiyena. Tibbiy ekologiya moduli bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.</p> <p>Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:</p> <ul style="list-style-type: none"> - joriy baxolash (JB); - yakuniy baholash (YAB). <p>Modulga ajratilgan 4 kreditni talaba JN davomida yig'adi.</p> <p style="text-align: center;">Joriy nazorat (JN)</p> <p>Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Gigiyena. Tibbiy ekologiya. Harbiy gigiyena bo'yicha joriy nazorat o'zaki, o'rgatuvchi nazorat testlari, vaziyatli masalalari shakllarda o'tkaziladi.</p> <p>Baholashda talabaning bilim darajasi, o'quv materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv uslublarida qatnashishning faollik darajasi hisobga olinadi.</p> <p>Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Joriy nazoratda talabalar bilimi ta'lim modeliga asoslangan holda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: nazariy va amaliy qism (50:50).</p> <p>Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish balli 55 ball.</p> <p>Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lgan muddat beriladi.</p> <p>Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.</p> <p>Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash ballidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.</p> <p>Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi.</p>

Modul bo'yicha talaba reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS baho	ECTS ning ta'rifi		Baho	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" - a'lo natija, minimal hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandart vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qobiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	5	a'lo
81-85	B	"juda yaxshi" -	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la</p>	4	yaxshi

		o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standard vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
71-80	C	"yaxshi" - o'rtacha	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la		

		natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan; terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ- huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoni-qarli" - sust natija,	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim</p>	3	Qoni qarli

		qo'pol kamchiliklar bilan	<p>hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
55-59	E	"o'rta" - minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p>terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p>		

			<p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiyalar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
31-54	FX	"qoniqarsiz" - minimal darajadagi bilim-larni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlash-tirishi zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p>	2	Qoniqarsiz
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" to'liq qayta o'zlash-tirishi lozim	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rilay olmasa.</p>		

Yakuniy nazorat (YAN)

YaN 3-semestr so'ngida bo'lib, institute tomonidan tashkil etilgan maxsus komissiya tomonidan OSE va test shakllarida amalga oshiriladi, 100 balli tizimda

baholanadi, o'tish bali 55 ball. Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan kursdan kursga qoldiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi. Apellyasiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazoraqilinadi.

6

Asosiy adabiyotlar:

1. Iskandarova SH.T., Salomova F.I., Abdukadirova L., Sadullaeva X., Xasanova M.I. Gigiyena. Tibbiy ekologiya. Darslik. - Toshkent. 2018 y.
2. Iskandarova SH.T., Xasanova M.I., Ikramova M.I. i dr. Rukovodstvo k prakticheskim zanyatiyam po obshchey gigiyene. O'quv qo'llanma. Toshkent. Fan va ta'lim. 2013 y.
3. B.A.Duschanov, Sh.T.Iskandarova. Umumiy gigiyena. Darslik. –Toshkent. Kitob-jurnal. 2008 y

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Melnichenko P.I. Gigiyena s osnovami ekologii cheloveka. Uchebnik. Moskva. GEOTAR –Media. 2011g.
2. Kuchma V.R. Gigiyena detey i podrostkov. Uchebnik. - Moskva GEOTAR-Media». 2008 g.
3. Bolshakov A.M. Rukovodstvo
4. Дусчанов Б.А., Юсупов О., Нуралиев С., Аминов У. «Радиация и военная гигиена». Учебник. Т., Новое поколение века. -2008.
5. Пономарева Л.А., Иногамов В. Р., Саломова Ф.И., «Радиационная гигиена» Ташкент. «O'ZKITOBSAVDO», 2020.
6. Мельниченко П.И., Архангельский В.И., Козлова Т.А. и б. «Гигиена с основами экологии человека», Учебник. Москва. ГЭОТАР - Медиа. 2010 г.
7. Румянцев Г.И., Прохоров Н.И., Новиков С.М. и б. «Гигиена» Учебное пособие для вузов, Москва. ГЭОТАР-Медиа. 2009 г.
8. Большаков А.М. «Общая гигиена» Москва. ГЭОТАР-Медиа. 2009 г.
9. Кича Д. И. Н. Drojjina A., Фомина А. В. «Общая гигиена методические указания для лабораторных работ.» Москва. ГЭОТАР-Медиа, 2010.
10. UZR SSV, UZR SanQVM -. 2005 – 2022.
11. Отдельные темы по гигиене и экологии человека редакцией Эмилия Kolarzyk , 2002.
12. Радиационная защита и безопасность источников излучения: Международные основы безопасности Стандарты. Международное

агентство по атомной энергии, Вена,2014.

13. Салиева М.Х., А.Ш.Арзикулов, К.М.Юсупов, М.М.Мирзаева. Экология и гигиена//Учебное пособие, Андижан 2019.-С.156.
14. Мирзаева М.М. Экология ва гигиена//Укув кулланма, Андижан 2020.- 228-Б.
15. Salieva M.X., A.SH.Arzikulov, K.M.YUsupov, M.M.Mirzaeva, S.S.Xalmirzaeva. Dietologiya// Ukuv kullanma, Andijon 2020.- 276-В.
16. Юсупов К.М. Гигиена тиббий экология и //Укув кулланма, Андижан 2020.- 113-Б.
17. Минаваров А.А. Мутахассисликка кириш// Укув кулланма, Андижан 2020.- 180-Б.
18. SHayxova G., Ermatov N. Nutritsiologiya//Darslik, Toshkent. 2021. -486-В.
19. Salieva M.X., YUsupov K.M. Osnovy klinicheskoy dietologii // Monografiya. Andijan 2023.-S.121.
20. Салиева М.Х. Основы изучения медико-профилактического дела// Учебное пособие, Андижан 2021.-С.200.
21. Рагимов Р.М., Рабочая программа по дисциплине “Гигиена”, ДГМУ, 2022
22. Салиева М.Х. Современные проблемы экологии и гигиены// Учебное пособие, Андижан 2023.-С.121.
23. Халмирзаева С.С.,Салиева М.Х., К.М.Юсупов, М.М.Мирзаева Мехнат гигиенаси// Укув кулланма, Андижон 2021.- 213-Б.
24. Салиева М.Х. Введение в специальность// Учебное пособие, Андижан 2021.-С.187.
25. Юсупов К.М. Овкатланиш гигиенаси //Укув кулланма, Андижон 2022.- 232-Б.
26. Usmanova G.K.” Atrof muhit omillari” o‘quv qo‘llanma Andijon – 2022 yil
27. Владимировский государственный университет, рабочая программа дисциплин общая гигиена и валеология. 05,03,06, «Экология и природопользования» РФ - 2022 г.
28. Федеральное государственное автономное образовательное учреждение высшего образования «Российский национальный исследовательский медицинский университет имени Н.И. Пирогова» Министерства здравоохранения Российской Федерации (ФГАОУ ВО РНИМУ им. Н.И. Пирогова Минздрава России) рабочая программа дисциплины профилактика стоматологических заболеваний

Internet saytlari

- 1.www.minzdrav.uz;
- 2.www.tma.uz
- 3.www.Ziyonet;
- 4.www.hygiene.uz;
- 5.www.radiation.uz;
- 6.<https://www.iaea.org/>(International Atomic Energy Agency)
- 7.www.radiation-and-risk.com.
- 8.www.uran.pro

	<p>9.https://share.google/sN7cEctY2BRngB2LH 10http://rsmu.ru/academics/undergraduate/dentistry/dentistry-3xx?page30803=2&cHash=a2e6b82d0be660b30d6c932970a606bd 1. 11,https://univision.kz/edu-program/19984.html.</p>
7	Andijon davlat tibbiyot instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Kengashining 2025 yil «27» avgustdagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.
8	Fan/modul uchun mas`ullar: A.A.Minovarov - ADTI Preventiv tibbiyot asoslari kafedrasida katta o'qituvchisi
9	Taqrizchi: S.M.Babich - Ijtimoiy gigiyena va SSB kafedrasida mudiri, t.f.n. dotsent